CHOR ROSSIYASI HUKUMRONLIGI DAVRIDA TURKISTON O‘LKASIDAGI TA’LIM TIZIMI: AN’ANA VA YANGILANISHLAR

Akbarov Odiljon Ergashevich
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tel:+99894-156-10-82 e.mail: shahinabonu16@gmail.com

UDK: 37(575.1)(091) “18/19”
ORCID: 0009-0003-4868-7307

Abstract. This article comprehensively examines the educational reforms in Turkestan during the reign of Tsarist Russia, the goals, objectives, achievements, and shortcomings of traditional and new teaching methods embedded within them, and draws scientific conclusions. It examines the ideas, pedagogical, and spiritual strategies of the leaders of the Jadid Enlightenment, aimed at opening new schools, introducing secular education, and restoring national identity. A comparative analysis of the educational systems of the Turkic peoples living in Turkestan is also provided, taking into account the sociopolitical situation of the time.

Keywords: Jadidism, Enlightenment, colonial policy, national revival, madrassas, “New Method” schools, Russian system schools, cultural modernization, social mechanism, religious ignorance.

1. Introduction

Ta’lim tizimining shakllanishi va administrativ pozitsiyasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo ta’lim tizimi feodal-diniy asosda shakllangan, ammo Chor imperiyasi mustamlakachilik siyosati ta’sirida tubdan o‘zgarishga majbur

bo‘lgan murakkab ijtimoiy mexanizm edi. Bu davrda ta’lim ikki yo‘nalishda mavjud edi: an’anaviy maktab va madrasalar tizimi, hamda imperiya tomonidan tashkil etilgan rus-tuzem maktablari. Bu ikki tizim nafaqat maqsad jihatidan, balki ijtimoiy-ma’naviy mohiyat jihatidan ham bir-biriga zid edi. Shuning uchun ta’lim masalasi XIX asr yuzyilligi Turkistonida eng muhim mafkuraviy maydonga aylandi.

Madrasalar: turg‘unlik va ichki ziddiyatlar fonida Buxoro, Xiva, Samarqand, Qo‘qon va Toshkent kabi markazlarda faoliyat yuritgan madrasalar asrlar davomida musulmon ta’limida tirgak vazifasini o‘tab kelgan edi. Ular ilohiyot, fiqh, arab tili, mantiq va adabiyot fanlarini chuqur o‘rgatgan. Ammo XIX asr oxiri kelganida bu tizim yangi davr talablariga javob bera olmay qoldi. Davr talablariga javob bermaydigan ta’lim tizimi millatning har tomonlama atrda qolishiga sabab bo‘lishini chuqur his qilgan jadidlar jamiyatga ochiq chaqiriq bilan chiqdilar.

Abdulla Avloniy esa ta’lim mazmuniga tanqidiy yondashib, holatni quyidagicha tavsif etadi:

“Bu kitoblarning ba’zisi oshiqona nazmlardan va ba’zilari e’tiqodot va amaliyoti islomiyag‘a mutaalliq mushkul mas’alalardan iborat o‘lg‘onlaridan moada aksarlari forsiy tilda yozilg‘onlari uchun turk o‘gli turk o‘lan yosh bolalarimizning onlardan istifodalari, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi”[1].

2. Methods (Metodologiya)

Mazkur tadqiqot tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida:

- tarixiy-qiyosiy tahlil usuli orqali an’anaviy va yangi ta’lim tizimlari solishtirildi;
- manbashunoslik yondashuvi asosida Avloniy, Donish, Ostroumov, Kaufman va boshqa mualliflar qarashlari o‘rganildi;
- ijtimoiy-siyosiy kontekst tahlili orqali ta’lim tizimining mustamlakachilik siyosati bilan bog‘liqligi ochib berildi.

3. Results (Natijalar)

Madrasalar o‘qitish metodikasi yodlash va takrorlashga asoslangan edi. Muddarislarning ko‘pchiligi o‘zlari bolalikdan ko‘rgan, o‘zlashtirgan ta’lim mazmuni va shakllarini aynan qabul qilib, deyarli o‘zgartirishsiz davom ettirardilar. Mustaqil fikrlash, tanqidiy va kreativ mushohada, diniy va dunyoviy fanlar integratsiyasi haqida eski tizim metodikasi izlanish olib bormagan. Bu, balki, ayrim ijodkor, izlanuvchi mudarrislar faoliyatida kuzattilgan bo‘lishi mumkin, lekin bu borada aniq dalil, manbaa yo‘qligi uchun qat’iy hukm yuritish o‘rinli emas deb bilamiz. Ammo o‘sha davr ta’lim tizimining keng yoyilgan kamchiligi ta’limning amaliy hayotdan uzilib qolgani deyish mumkin.

Rus ma’muriy xizmatchisi Nikolay Ostroumov 1895-yilda chop etilgan “Russkaya shkola v Turkestane” asarida madrasalar faoliyatini keskin tanqid qilib, mahalliy musulmon maktablari bir joyda qotib qolgani, ular zamonaviy tafakkurga begona ekanligi va har bir bolani Qur’onni yodlab, lekin dunyoda nima bo‘layotganini bilmasligini aytadi [2].

Bundan tashqari, Ostroumov kabi mustamlakachi olimlar madrasalarni ma’rifat emas, diniy jaholat o‘chog‘i deb atagan edi. Bu baho, albatta, siyosiy maqsadga yo‘naltirilgan edi: imperiya madaniy ustunligini oqlash uchun madrasalarni qoloqlik timsoli sifatida ko‘rsatish zarur edi. Bu siyosiy g‘araz-la, yolg‘onga yo‘g‘rilgan ma’lumot ekanini O‘rta Osiyi tarixiga Chor Rossiyasi bilan ayni bir xil yondashgan Sho‘ro (sovet)lar davrida nashr qilingan Ahmad Donishning “Navodirul vaqoye” asari nashri uchun yozilgan Kirish so‘zda uning muallifi o‘zi bilmagan holda ochiqlab qo‘yadi: “Ahmad Donish o‘z tug‘ilgan shahrida bilim oldi; matematika, geometriya, astronomiya, muzika, tasviriy san’at, tarix va falsafa sohasidagi bilimlarni mustaqil o‘qib, o‘z davrining ilg‘or, har tomonlama bilimli kishisi bo‘lib yetishdi.” [3]. Bu yerda “mustaqil o‘qib” iborasi madrasalar

mehnatini, ulardagi tizim samarasini pardalash uchun kiritib qo‘yilgani kunday ma’lum.

Shuningdek, amerikalik tarixchi Adib Xolid N.Ostroumov fikrni tanqid qilib, shunday yogan edi: “Rossiya imperiyasi madrasalarni faqat diniy jaholat ramzi sifatida ko‘rsatdi, lekin bu tahlil yuzaki. Aslida, madrasalar diniy tafakkur, tilshunoslik, falsafa sohalarida ancha chuqur bilim markazi bo‘lgan. Muammo ularning metodida, ya’ni yangi bilimlarga yopiq qolganidadir” [4]. Bu tarafdan qaraganda, O‘rta Osiyo ta’lim tizimi o‘z zamonida sog‘lom, ammo eskirgan organizm holatiga tushgan edi. Bundan rus istilochilari o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida unumli foydalandilar.

Rus istilochi hukumati XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonni ishg‘ol qilganidan so‘ng mustamlakachilik siyosatini yolg‘iz iqtisodiy emas, ma’rifiy-ma’naviy sohalarda ham kuchaytirdi. Ta’lim va tarbiya mazkur siyosatning eng muhim nuqtasi edi. Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufmanning 1870-yillardagi maxfiy ma’ruzasida mahalliy aholini to‘liq bo‘ysundirish uchun ularning ongini rus madaniyati bilan yo‘g‘urish zarurligini maktab bu yo‘lda eng qudratli qurol vazifasini bajarishini aytib o‘tgan edi [5]. Shundan so‘ng, rus-tuzem maktablari (ya’ni aralash maktablar) ochildi. Bu maktablarning platformasi quyidagicha edi:

- birinchi bosqich – diniy savod;
- ikkinchi bosqich – rus tili va dunyoviy fanlar;
- uchinchi bosqich – imperiya mafkurasi.

Bu tizimning yashirin maqsadi – mahalliy elita orasidan “sodiq xodimlarni”ni yetishtirish edi. Tarixchi Daniel Brover bu haqida, rus-tuzem maktablarining haqiqiy maqsadi ilm berish emas, balki itoatni o‘rgatishi, ularning o‘quvchilari rus davlatining mahalliy yordamchilariga aylanishi kerak bo‘lganini aytib o‘tgan [6]. Toshkentlik o‘qituvchi Abdulqodir Shakuri o‘z esdaliklarida bu maktablarni

shunday xotirlaydi: “Maktabda rus muallim bizga tabassum bilan qarardi, lekin bizning tilimizda so‘zlashishni taqiqlardi. Ruscha so‘zlagan bola mukofot olardi, o‘z tilida gapirgan bola jazolanardi. Shu tariqa biz o‘z tilimizdan uyala boshladik” [7].

Mahalliy maktablar ustidan nazorat va Byurokratik nazorat kuchayib, byurokratik cheklovlar joriy etildi.

Turkiston general-gubernatorligi 1880-yillarda diniy maktablarni nazorat qilish uchun maxsus “inspektorlik yo‘riqnomasi” ishlab chiqdi. Unda har bir madrasa va maktab faoliyati haqida hisobot topshirish, muallimlar ro‘yxatini taqdim etish, o‘quv dasturini oldindan tasdiqlatish majburiy qilib qo‘yildi. Turkiston o‘lkasida mudarris endi diniy shaxs emas, ma’muriy tizimning bir halqasiga aylandi. U ruxsatsiz dars bera olmasdi [8]. Shu bilan birga, vaqf moliyalari ustidan ham nazorat kuchaytirildi. Ko‘plab madrasalar moliyaviy erkinligini yo‘qotdi. Buxoro amirligida 1900-yilga kelib 380 dan ortiq madrasa faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, ularning 60 foizi tushum yo‘qligi sababli o‘z faoliyatini qisqartirishga majbur bo‘lgan [9]. Buxorolik ziyoli Ahmad Donish esa bu holatni o‘zining “Navodir ul-vaqoe” asarida quyidagicha tanqid qilgan edi: “Ilm manbayi bo‘lgan madrasa bugun qog‘ozbozlik manziliga aylandi. U yerda dars emas, faqat ruxsatnomalar yuradi” [10].

4. Discussion (Muhokama)

Mazkur davrda ta’lim tizimi uch asosiy kuch o‘rtasida shakllandi:

1. Diniy-an’anaviy ta’lim (madrasalar);
2. Imperial ta’lim (rus-tuzem maktablari);
3. Jadidchilik harakati.

Jadidlar ta’limni isloh qilish orqali milliy uyg‘onishni maqsad qildilar. Ular eski tizimni inkor etish emas, balki modernizatsiya qilish tarafdori edilar.

Natijada quyidagi muammolar yuzaga keldi:

• madrasalar dunyoviy taraqqiyotdan ortda qoldi;

• rus-tuzem maktablari orqali mafkuraviy bosim kuchaydi;

• ta’lim ustidan nazorat kuchaydi;

• til va identifikatsiya muammosi keskinlashdi.

Bu muhitda “milliy pedagogika” tushunchasi shakllandi.

5. Conclusion (Xulosa)

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ta’lim tizimi murakkab va ziddiyatli transformatsiyani boshdan kechirdi.

- An’anaviy ta’lim tizimi tarixiy rol o‘ynagan bo‘lsa-da, zamon talablariga moslashishda sustkashlik qildi.
- Rus-tuzem maktablari mustamlakachilik mafkurasini yoydi.
- Jadidchilik esa milliy uyg‘onishning asosiy omiliga aylandi.

Shu bois ushbu davr ta’lim tizimi nafaqat pedagogik, balki siyosiy va madaniy fenomen sifatida baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar, 2-jildlik. 1-jild. T.: Ma’naviyat, 2009. 82-bet.

2. Остроумов Н. П. Русская школа в Туркестане. - Ташкент, 1895.

3. Аҳмад Дониш. Наводирул вақое. Т.: Фан, 1964. 10-бет.

4. Qosimov Begali. O‘zbek ma’rifatparvarligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy yensiklopediyasi, 2019.

4. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.

5. Turkiston General-Gubernatori K. P. Kaufman arxivi, 1872-yil, 3-sonli maxfiy ma’ruza. (Rossiya Davlat Harbiy Arxivi, f. 489, op. 7, d. 23).

6. Brosher, Daniel. Turkestan and the Fate of the Russian Yempire. – London: Routledge, 2003.

7. Shakuri, Abdulqodir. Yesdaliklar. – Qo‘lyozma, O‘zbekiston FA Arxivi, inv. № 1124.

8. Абрамзон, С. М. Социальная структура населения Туркестана в конце XIX века. - Москва: Наука, 1965.

9. Abdullaev, S. Jadid maktablari va yangi pedagogik tafakkur. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

10. Donish, Ahmad. Navodir ul-vaqoe. – Buxoro, 1885.